

TIL TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Sulaymanova Dilobar Nishanbekovna, PhD
Jizzax shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi⁶
Elektron pochta: dilobar7796@gmail.com,
Telefon raqami: +998933057796
ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-9162-0044>

Annotatsiya: Ushbu maqolada til ta'limida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijasi kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish maqsadida tatbiq etilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli ta'limiy platformalar asosida o'quvchilarning og'zaki nutq sifatlari, yozma savodxonlik darajasi va ijodiy ko'nikmalarining oshishi bilan asoslanadi. Tadqiqotning amaliy natijasiga ko'ra, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, umummadaniy qadriyatlar, raqamli axborot bilan ishlash kompetensiya elementlari shakllantiriladi, ijodiy pedagogik yondashuv va raqamli vositalarni qo'llash orqali ona tili darslarida kommunikativ ko'nikmalarning rivojlantirilishi faktik dalillanadi.

Kalit so'zlar: *til ta'limi, kommunikativ kompetentlik, raqamli texnologiya, og'zaki va yozma nutqiy savodxonlik*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida XXI asr ko'nikmalaridan sanalgan kommunikativ kompetentlik o'quvchilarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish va ularni baholash pedagogik jarayonning asosiy mezoni hisoblanadi. Shu bilan birga kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarning nutq faoliyatini tizimli va izchil baholash imkonini beradi. Bugungi ta'lim paradigmasi bilimlarni yod oldirish emas, kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgani ma'lum. Ta'kidlanganidek, til ta'limida kommunikativ kompetensiya shaxsning ijtimoiylashuvi, akademik muvaffaqiyati va global maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Zero, D. Hymes (1972) keltirib o'tganidek, kommunikativ kompetensiya – tilni kontekstga mos va ijtimoiy maqbul tarzda qo'llay olish qobiliyati. Shuningdek, Canale va Swain (1980) bu tushunchani grammatik, sotsiologik, diskursiv va strategik kompetensiyalar majmui sifatida kengaytirgan.

Ushbu texnologiya asrida kommunikativ kompetensiya raqamli muhit bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. P. Mishra va M. Koehler (2006) tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeliga ko'ra, o'qituvchida texnologik, pedagogik va sohaviy bilimlarni integratsiyalash zarurati oshib bormoqda. Ta'kidlash joizki, texnologiya samaradorligi uning pedagogik maqsadga mos qo'llanishiga bog'liq.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbatlar, diagnostik topshiriqlar va tajriba-sinov mashg'ulotlari raqamli texnologiyaga integratsiyalashgan holda amalga oshirildi. Shuningdek, amaldagi o'quv dasturi va

⁶ Jizzax shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

kompetensiya mezonlari asosida kommunikativ ko'nikmalarni hayotiy nutqiy vaziyatlarga bog'liq holda baholashga yo'naltirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim va baholash (competency-based education and assessment) XXI asr ta'lim jarayonining markaziy yo'nalishi sifatida xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilgan. Spencer va Spencer (1993) kompetensiyaga asoslangan yondashuvni o'quvchilarning nazariy bilimlari bilan birga amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va baholash imkoniyati sifatida ta'riflaydi. Hozirgi vaqtda Brown (2004) va Richards & Rodgers (2014) og'zaki nutq ko'nikmalarini baholashda rubrikalar va faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlarni samarali vosita sifatida ko'rsatadi, bu esa nutqiy kompetensiyani tizimli va davomiy rivojlantirish imkonini beradi.

Interfaol yondashuv: ta'lim jarayonida sifat va samaradorlik uyg'unligi

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan sohasini jadal rivojlantirish, milliy ma'naviyatni yuksaltirish borasidagi izchil islohotlarning samarasi, davlat tiliga e'tibor va g'amxo'rlikning in'ikosi sifatida o'zbek tili ta'limini ilmiy jihatdan boyitishda keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. (Sulaymanova, 2025: 3)

Prezident maktablarida ta'lim jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar orqali tashkil etiladi. O'quvchi markazlashgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili fanida interfaol yondashuvlar – muhokama, rolli o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar va loyihaviy ishlar – yordamida og'zaki nutq va muloqot ko'nikmalari amaliy kontekstda rivojlantiriladi.

Sifat va samaradorlik uyg'unligi interfaol yondashuvlarda asosiy mezon hisoblanadi, o'quvchilarda nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarning rivojlantirish yuqori sifatli ta'limda asosiy o'rin egallaydi. Prezident maktablari tajribasida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda raqamli vositalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi natijasida o'quvchilarning o'zaro fikr almashinuvi, muammolarni birgalikda hal etish va individual yondashuvni rag'batlantirishi bilan ta'lim sifatini oshirish ta'minlanadi. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan baholash interfaol ta'lim jarayonning samaradorligini tizimli o'lchash imkonini beradi, bu esa pedagogik jarayonni real vaqt rejimida nazorat qilish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Natijada, ushbu dars shakli Prezident maktablarida ona tili ta'limini nafaqat bilim berish, balki XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, kommunikativ va tanqidiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida samarali uyg'unlashtiradi.

Raqamli texnologiyalar va kommunikativlik

Kommunikativ kompetentlik – bu so'zlovchining til birliklarini nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki nutq vaziyatiga mos, ijtimoiy-madaniylikni hisobga olgan holda qo'llay olish qobiliyatidir. U muloqot usulini ongli ravishda tanlash, fikrni ravon, izchil va mantiqiy tuzilishda ifodalash hamda kommunikativ maqsadga erishishga xizmat qiluvchi diskursiv va pragmatik vositalardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Shu bois kommunikativ kompetentlik til o'rgatish nazariyasining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tushuncha zamonaviy raqamli pedagogika bilan integratsiyalashganda – yuqori sifatli ta'lim muhiti multimodal resurslar, interfaol ta'limiy platformalar bilan uyg'unlashganda o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanadi. Natijada til birliklarini qo'llash jarayoni reproduktiv mashqlardan konstruktiv va kollaborativ muloqotga o'tadi. Shu bois kommunikativ kompetentlik va raqamli pedagogika sintezi til ta'limida nafaqat nutqiy

malakalarni, balki tanqidiy fikrlash, reflektiv tahlil va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini ham har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar yuqori sifatli ta'limni tashkil etish va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga quyidagicha ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- o'quvchilarning yozma nutqiy faolligini oshiradi;
- o'zaro fikr almashinuv, hamkorlikni kuchaytiradi;
- reflektiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- differensial ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jumladan, Almomani va Abu Musa (2022) tadqiqotida Padlet platformasi masofaviy ta'lim sharoitida hamkorlik va yozma savodxonlikni sezilarli oshirganligi qayd etilgan. Rath (2025) esa peer-feedback jarayonida anonim fikr bildirish imkoniyati talabalarning ochiq va mustaqil fikrlashini kuchaytirganini ta'kidlaydi. Nearpod platformasi bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar esa o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish ko'rsatkichlari va motivatsiyasini oshirishini ko'rsatadi. O'yinga asoslangan baholash elementlari kommunikativ ishtirokni faollashtiradi.

Shuningdek, dars jarayonida qo'llanilayotgan turli ijodiy interfaol metodlar ushbu turdagi kompetentlikni yanada mustahkamlashda salmoqli o'rinda ega. Masalan, "Kim lider?" o'yini o'quvchilarda yetakchilik, jamoaviy ishlash, mas'uliyat va fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "So'zlar jangi" metodi orqali esa lug'at boyligini oshirish, tezkor analitik tahlil qilish va eslab qolish kompetensiyalari mustahkamlanadi. Harakat va tafakkur tezligini uyg'unlashtirgan "Kim epchil-u, kim chaqqon?" o'yini esa psixomotorik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi.

"Mitti tilshunos" metodi leksikologiya, leksikografiya kabi bo'limlar bo'yicha bilimlarni o'quvchilar orasida mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, lug'at zaxirasi boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, "Men kimman?" metodi harakatli o'yin shaklida tashkil etilib, "ha" va "yo'q" javoblari orqali va til ta'limiga oid tanqidiy va tahliliy, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

"Til charxi" va "A4 format" kabi o'yinlar yozma nutq, fikr bildirish, tahliliy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

Yuqoridagi ta'limiy o'yinlar va onlayn platformalar asosida tashkil etilgan noan'anaviy darslar til ta'limi sifatini oshirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'un ta'lim muhitini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Mazkur maqolada ona tili darslarini o'quvchi markazlashgan ta'lim modeli doirasida tashkil etishning zamonaviy metodik yondashuvlari yoritildi. Raqamli ta'limiy vositalar va interfaol metodlarning til ta'limida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berildi, o'quvchilar faollik darajasi oshishiga ta'siri faktik dalillandi. Ushbu raqamli integratsiyaning o'quvchini nafaol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdagi, yuqori sifatli ta'lim (HQLT)ni tashkil etishdagi va XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishdagi ta'limiy ahamiyati dalillandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Almomani, D., & Abu Musa, M. (2022). *The impact of Padlet on enhancing collaborative writing skills in online learning environments*. International Journal of Emerging Technologies in Learning, 17(8), 45–60.

2. Brown, H. D. (2004). *Language assessment: Principles and classroom practices*. Pearson Education.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). *Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing*. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1>
4. Hymes, D. (1972). *On communicative competence*. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Penguin Books.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge*. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684>.
6. Rath, L. (2025). *Anonymous peer feedback and its influence on critical thinking in digital learning environments*. *Journal of Educational Technology Research*, 48(2), 112–128.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
8. Spencer, L. M., & Spencer, S. M. (1993). *Competence at work: Models for superior performance*. John Wiley & Sons.
9. Sulaymanova, Dilobar (2025) *Gapning lisoniy qurilishida markaz qurshovlilik munosabati*: Filol. fan. b.fals.dok...diss. – Toshkent, 3-b.